



JIGAR VA O'T PUFAGI KASALLIKLARI

Atayarova Shahnoza Aktam qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Davolash ishi fakulteti 1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Xidirov Ziyodulla Erkinovich

Odam Anatomiyasi Kafedrasi Assistenti

shahnozaatayarova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola jigar va o't pufagi kasalliklarini keng qamrovda o'rganishga bag'ishlangan. Jigar va o't pufagi inson organizmining hayotiy vazifalarini bajaradigan muhim a'zolaridir. Jigarda modda almashinuvi, zaharli moddalarni zararsizlantirish, o't suyuqligi ishlab chiqarish va ovqat hazm qilish jarayonlari amalga oshiriladi. O't pufagi esa safro suyuqligini saqlab, ovqat hazmiga yordam beradi. Maqolada jigarda uchraydigan gepatit, yog'li gepatoz, sirroz va jigar yetishmovchiligi, shuningdek, o't pufagidagi xolesistit, o't toshlari va safro dimlanishi kabi kasalliklar batafsil yoritilgan.*

This article is dedicated to a comprehensive study of liver and gallbladder diseases. The liver and gallbladder are vital organs in the human body: the liver participates in metabolism, detoxifies harmful substances, produces bile, and facilitates digestion. The gallbladder stores bile and helps in the digestive process. The article provides detailed information about common liver diseases, including hepatitis, fatty liver, cirrhosis, and liver failure, as well as gallbladder conditions such as cholecystitis, gallstones, and bile stasis.

Данная статья посвящена всестороннему изучению заболеваний печени и желчного пузыря. Печень и желчный пузырь являются жизненно важными органами человека: печень отвечает за обмен веществ, обезвреживание вредных веществ, выработку желчи и пищеварение. Желчный пузырь хранит желчь и способствует процессу пищеварения. В статье



подробно рассматриваются заболевания печени, такие как гепатит, жировая дистрофия печени, цирроз и печеночная недостаточность, а также болезни желчного пузыря, включая холецистит, желчные камни и застой желчи.

Kalit so'zlar: jigar kasalliklari, o't pufagi kasalliklari, gepatit, yog'li gepatoz, sirroz, jigar yetishmovchiligi, xolesistit, o't toshlari, safro dimlanishi, ovqat hazm qilish, sog'lom turmush tarzi.

Kirish

Jigar va o't pufagi kasalliklari — bugungi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan sog'liq muammolaridan biri bo'lib, gepatit, yog'li jigar kasalligi, sirroz, xolesistit va o't toshlari kabi kasalliklar inson salomatligiga jiddiy tahdid soladi. Maqola jigarning va o't pufaging asosiy kasalliklarini, ularning sabablarini, belgilari va oldini olish chora-tadbirlari haqida ilmiy asosda ma'lumot beradi hamda salomatlikni saqlashning muhimligini yoritadi. O't pufagi esa jigarda ishlab chiqarilgan safro suyuqligini saqlab, ovqat hazm qilish jarayonida ichakka chiqaradi. O't pufagi va uning yo'llari kasalliklari safro oqimini to'sib qo'yishi, yallig'lanish jarayonlarini keltirib chiqarishi yoki o't toshlari hosil bo'lishi sababli rivojlanadi, bu esa ovqat hazm bo'lishiga salbiy ta'sir qiladi.

1. Gepatit

Sababi: viruslar (A, B, C)

Belgilari: holsizlik, ishtaha yo'qolishi, teri sarg'ayishi

Gepatit — jigar to'qimasining yallig'lanishi bo'lib, asosan A, B, C, D, E viruslari, zaharlanish yoki autoimmun jarayonlar sababli yuzaga keladi.

O'tkir (A, E) va surunkali (B, C, D) shakllari mavjud bo'lib, isitma, charchoq, sariqlik va qorin og'rig'i kabi alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Dunyo bo'ylab 300 milliondan ortiq inson surunkali gepatit bilan yashaydi, B va C turlari jigarning og'ir kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Gepatit turlari va yuqish yo'llari

- Gepatit A (HAV): Zararlangan suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadi, ko'pincha o'z-o'zidan tuzalib ketadi.



- **Gepatit B (HBV):** Qon, jinsiy yo‘l yoki ona suti orqali yuqadi, surunkali shaklga o‘tishi mumkin. Kasallik asosan qon orqali yuqadigan gepatit B virusi bilan tanaga zarar yetkazish natijasida yuzaga keladi. Gepatit B sabablari: inyeksion giyohvand moddalarni iste‘mol qilish, tatuirovka salonlari xizmatlaridan foydalanish (iflos igna orqali yuqtirish); qon quyish, tibbiy muassasalarda operatsiyalar paytida infektsiya yuqishi; infektsiyalangan odamning shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanish, tug‘ruq paytida onadan homilaga virus yuqishi. mumkin. Kasallikning dastlabki belgilari odatda infektsiyalanishdan 12 hafta o‘tgach paydo bo‘ladi. Gepatit B uchun xarakterli alomatlar quyidagicha: tez charchoq, doimiy charchoq hissi, ko‘ngil aynishi, qusish; qovurg‘a osti o‘ng tomonda vaqti-vaqti bilan og‘riq;

siydikning qorayishi; tana haroratining ko‘tarilishi; ko‘z oqlari, terining sarg‘ayishi;

axlat rangsizlanishi.

- **Gepatit C (HCV):** Asosan qon orqali yuqadigan jiddiy infektsiya, ko‘pincha surunkali shaklga o‘tadi.

- **Gepatit D (HDV):** Faqat gepatit B bor bo‘lganda rivojlanadi, kasallikni og‘irlashtiradi.

- **Gepatit E (HEV):** Ifloslangan suv orqali yuqadi.


2. Jigar sirrozi

Sababi: uzoq davom etgan jigar kasalliklari

Belgilari: qorin shishishi, kuchli charchoq

Xavfi: jigar faoliyati izdan chiqadi

Jigar sirrozi - jigarning surunkali rivojlanib boradigan kasalligi; bunda jigar to‘qimasi yallig‘lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to‘qima bilan almashinadi. Jigarning o‘tkir yallig‘lanishi — gepatitda, uning B, C, D shakllarida, o‘tkir gepatit surunkali gepatitga aylanayotganda, bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz kabi yuqumli kasalliklarda, o‘t pufagi va o‘t yo‘llarining surunkali yallig‘lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda,



shuningdek, alkogolizm va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq; tekshirganda jigarning qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo'rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko'ngli ayniydi, ba'zan qusadi, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo'ladi, tana xarorati ko'tariladi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida u ko'tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba'zan sarg'ayadi; kamqonlik avjiga chiqadi; jigari va ayniqsa talog'i kattalashadi va qattiqlashadi.


3. Yog'li gepatoz

Sababi: noto'g'ri ovqatlanish

Belgilari: ko'pincha bilinmaydi

Oldini olish: parhez va jismoniy faollik.

Gepatoz (yun. hepar — jigar va osis — kasallik) — bir qator jigar kasalliklarining umumiy nomi; yallig'lanish alomatlari ozgina bo'lgani yoki umuman bo'lmagani holda jigar parenximasining distrofik o'zgarishi bilan ifodalanadi. Yog'li, pigmentli va xolestatik xillari bor. Yog'li G.da jigarni yog' bosadi, bu — ovqatlanish tarzi buzilganda, jigar to'qimasiga zaharli, ayniqsa spirtli moddalar ta'sir etganda, shuningdek gipoksiya va endokrin buzilishlar, xususan kandli diabetda kuzatiladi. Pigment almashinuvi buzilganda pigmentli G. ro'y beradi. Xolesterin va o't kislotasi almashinuvining buzilishi natijasida jigar ichida o't turib qolganda yoki ayrim dori moddalari, mas, aminazin, gormonalkortikosteroid preparatlar suiiste'mol qilinganda xolestati k G. paydo bo'ladi. Davo hamda kasallikning oldini olishda eng muhimi G.ga sabab bo'lgan omilni bartaraf etishdan iborat. G.ning hamma xillarida ovqatlanish tartibi, parhezga



rioya qilish, agar kasallik biror dori qabul qilinganida ro'y bersa, uni darhol tuxtatish kerak.

1. O't toshi kasalligi

Sababi: o't tarkibining buzilishi

Belgilari: o'ng qovurg'a ostida og'riq, ko'ngil aynishi


2. Xolesistit

Sababi: infeksiya yoki o't toshlari

Belgilari: isitma, qorin og'rig'i

Xususiyati: o't pufagi yallig'lanadi

Jigar (hepar)- organizmdagi eng katta bez bo'lib , og'irligi katta yoshdagi odamlarda o'rtacha 1500 g. Jigar hazm jarayonida, modda almashinuvda va qon ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Jigarning rangi qizg'ish bo'lib, yumshoq konsistensiyaga ega. U o'ng qovurg'a osti va qorin usti sohalarida joylashgan. Mo'tadil holatda jigar qovurg'a ravog'idan tashqariga chiqmaydi.



O't tosh kasalligi (xolelitiaz) — o't pufagi yoki o't yo'llarida xolesterin va pigmentlardan toshlar hosil bo'lishi bilan kechadigan moddalar almashinuvi kasalligidir. Odatda o'ng qovurg'a ostidagi kuchli og'riq, qusish va isitma bilan namoyon bo'ladi. Tashxis ultratovush (UZI) orqali qo'yiladi, davolashda parhez va ko'pincha xirurgik amaliyot (o't pufagini olib tashlash) qo'llaniladi.

Xulosa

Jigar va o't pufagi kasalliklari inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu a'zolar organizmda modda almashinuvi, ovqat hazm qilish va zararli moddalarni zararsizlantirishda muhim rol o'ynaydi. Noto'g'ri ovqatlanish, zararli odatlar va vaqtida davolanmaslik kasalliklarning og'irlashishiga olib keladi. Shuning uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish va shifokor



ko'rigidan muntazam o'tish ushbu kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev, N. Jigar kasalliklari va ularni davolash asoslari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018.
2. Karimov, S. Hepatologiya: Gepatit va sirroz. Toshkent: Medpress, 2020.
3. Aliyev, R. O't pufagi kasalliklari va ularni oldini olish. Toshkent: Tibbiyot Universiteti nashriyoti, 2017.
4. Smith, J., Brown, L. Liver Diseases: A Clinical Guide. New York: Springer, 2019.
5. Friedman, S., et al. Clinical Hepatology. London: Elsevier, 2020.
6. World Health Organization (WHO). Hepatitis and Liver Cancer Factsheet. Geneva: WHO, 2021.
7. Uzbekistan Ministry of Health. Gepatit va jigar saratonini oldini olish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, 2022.
8. Lee, W. Hepatic Oncology: Modern Perspectives. Singapore: Wiley, 2018.
9. O'zbekiston Respublikasi Tibbiyot Ensiklopediyasi, Toshkent: 2019.
10. Johnson, P., Liver Pathology and Treatment Approaches. Oxford: Oxford University Press, 2020.
11. Rakhmonov, T. Jigar va o't pufagi kasalliklari diagnostikasi. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
12. Global Burden of Disease Study. Liver Cancer and Cirrhosis Report. 2020.